



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 5-SON



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 5 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: oybekakhmedov1978@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: asqar@list.ru

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: mexrisha82@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Ilhombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o‘qituvchi.
E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

Imomov Nurillo Fayzullaevich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: nurillo_1212@mail.ru
ORCID: 0000-0001-8090-842X

Pirmatov Otabek Shavkatovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-0774-661

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: ismoilov.shuhrat80@mail.ru
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Matkarimov Kudrat Kalandarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: qudrat1979uzb@gmail.com
ORCID: 000-0003-0396-4027

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: dr.profil14@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Hakimov Komil Baxtiyarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Kadirova Moxigul Xamitovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: m.kadirova@tsul.uz
ORCID: 0000-0003-1450-7542

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

G'aniyeva Sabohat

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINING IQTISODIY
MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR TAHLILI6-10

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

XALQARO HUQUQ TERMINLARINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH
MUAMMOLARI 11-14

YURIDIK FANLAR

G'iyosov Bilolbek

RAQAMLI KUZATUV VOSITALARINI QO'LLASHDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI
TA'MINLASHDA SUN'IY INTELEKTNING O'RNI 15-19

Jo'rayev Doston

SUD TIZIMIDA MEDIATIV KELISHUVNING AMALIY MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH
YO'LLARI VA BU BORADA XORIJ TAJRIBASI 20-25

Raximjonova Odinaxon

WOMEN'S RIGHTS: INTERNATIONAL AND NATIONAL APPROACHES 26-30

FILOLOGIYA FANLARI – PHILOLOGICAL SCIENCES*Article / Original Paper***XALQARO HUQUQ TERMINLARINI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI****Isanova Feruza Tulqinovna**

Toshkent davlat agrar universiteti, o‘qituvchi

O‘zbekistan davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: isanovaferuza2909@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0281-7977>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro huquq terminlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy lingvistik va huquqiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda terminlarning semantik mosligi, huquqiy ekvivalentlikning cheklanganligi, ko‘p ma‘nolilik, kontekstga bog‘liqlik, institutsional tafovutlar hamda terminologik birxillik masalalari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro huquq terminlarini tarjima qilishda qo‘llaniladigan asosiy strategiyalar — to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobil topish, izohli tarjima, kalkalash va transliteratsiya — ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, huquqiy tarjimada faqat til bilimi yetarli emas; huquqiy tizimlar, terminologik me‘yor va matnning funksional maqsadi ham hisobga olinishi zarur.

Kalit so‘zlar: xalqaro huquq, terminologiya, huquqiy tarjima, ekvivalentlik, semantik moslik, tarjima muammolari.

PROBLEMS OF TRANSLATING INTERNATIONAL LAW TERMS FROM ENGLISH INTO UZBEK**Isanova Feruza Tulqinovna**

Tashkent State Agrarian University, teacher

Independent researcher, Uzbekistan State University of World Languages

Annotation. This article analyzes the main linguistic and legal problems that arise in the process of translating international law terms from English into Uzbek. The study covers the issues of semantic compatibility of terms, limited legal equivalence, polysemy, context-dependence, institutional differences, and terminological uniformity. It also evaluates the main strategies used in translating international law terms — finding a direct alternative, explanatory translation, calculus, and transliteration — from a scientific point of view. The analysis shows that in legal translation, knowledge of the language alone is not enough; legal systems, terminological norms, and the functional purpose of the text must also be taken into account.

Keywords: international law, terminology, legal translation, equivalence, semantic compatibility, translation problems.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i5v2y2026/n02>**Kirish**

Globalashuv sharoitida xalqaro huquqqa oid matnlar, xususan konvensiyalar, shartnomalar, deklaratsiyalar, protokollar va xalqaro tashkilotlar hujjatlarining tarjimasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday matnlarni o‘zbek tiliga sifatli tarjima qilish faqat leksik o‘g‘irish emas, balki mazmun, normativ kuch va huquqiy natijani to‘g‘ri uzatish vazifasini ham bajaradi. Shu sababli xalqaro huquq terminlari oddiy til birliklari emas, balki alohida huquqiy yuklamaga ega bo‘lgan maxsus terminlar sifatida qaralishi lozim [2].

Huquqiy tarjimada eng kichik semantik siljish ham hujjat mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, *party, reservation, jurisdiction, enforcement, claim, obligation* kabi birliklar bir qarashda sodda ko'rinsa-da, ular turli huquqiy kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. Shu bois xalqaro huquq terminlarini tarjima qilish tarjimashunoslik va huquqshunoslik kesishgan murakkab ilmiy-amaliy soha hisoblanadi [3].

Qolaversa, til huquqiy va ma'muriy tizimlarda muhim rol o'ynaydi. Qonunlar, qoidalar, shartnomalar va rasmiy hujjatlar til yordamida shakllantiriladi va izohlanadi. Ushbu sohalarda huquqiy va ma'muriy tizimlarning ravshanligi, adolatligi va to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun tildan to'g'ri va aniq foydalanish juda muhimdir. Xususan, xalqaro huquq o'ziga xos maxsus terminologiyaga ega murakkab soha bo'lib, huquqiy tushunchalar va atamalarning o'zbek tiliga to'g'ri va izchil tarjimasiga ega bo'lishi juda muhimdir [15; 152-b.].

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilidagi xalqaro huquq terminlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlash, ularning sabablari va yechim yo'llarini ilmiy asosda ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi o'zbek tilida xalqaro huquqiy matnlarning yagona va barqaror terminologik tizimini shakllantirish tarjima sifatiga bevosita bog'liq ekanligi bilan izohlanadi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, semantik va funksional yondashuvlardan foydalanildi. Qiyosiy-tahliliy metod ingliz va o'zbek tillaridagi huquqiy terminlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga xizmat qildi. Tavsifiy metod orqali terminlarning huquqiy matndagi qo'llanish xususiyatlari izohlandi. Semantik tahlil terminlarning lug'aviy ma'nosi bilan huquqiy ma'nosi o'rtasidagi tafovutlarni ochib berdi. Funksional yondashuv esa terminning matndagi vazifasini, ya'ni normativ, axborot beruvchi yoki protsedural mazmunini hisobga olish imkonini yaratadi [4].

Tadqiqot materiali sifatida xalqaro huquq bo'yicha ilmiy adabiyotlar, tarjimashunoslikka doir nazariy manbalar hamda xalqaro shartnomalar va huquqiy hujjatlarda uchraydigan terminlar tanlab olindi. Tahlil uchun ayniqsa ko'p muammo tug'diradigan terminlar: *state, treaty, convention, party, reservation, jurisdiction, enforcement, claim, custody, waiver va provision* kabi birliklar ko'rib chiqildi. Bu tanlov terminlarning tarjimada turli darajada noaniqlik tug'dirishi bilan asoslandi.

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro huquq terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda bir nechta asosiy muammo mavjud.

Birinchi muammo — to'liq leksik ekvivalentning yo'qligi. Masalan, *jurisdiction* terminini ayrim matnlarda "yurisdiksiya", ayrim hollarda "sudlov vakolati", "vakolat doirasi" yoki "sud yuritish vakolati" deb berish mumkin. Qaysi variant tanlanishi matnning huquqiy sohasi va qo'llanish maqsadiga bog'liq. Huquqiy terminlarning tarjimasida to'liq leksik ekvivalent har doim ham mavjud bo'lmaydi. Termin ma'nosi va tarjima varianti huquqiy kontekstga bog'liq holda belgilanadi [6].

Ikkinchi muammo — ko'p ma'nolilik va kontekstga qaramlikdir. Masalan, *claim* termini fuqarolik huquqida "da'vo", xalqaro nizolar kontekstida "talab", ayrim diplomatik matnlarda esa "e'tiroz" ma'nolarini beradi. Xuddi shuningdek, *party* terminini "tomon", "ishtirokchi" yoki "shartnoma ishtirokchisi" tarzida tarjima qilinadi. Kontekst e'tiborga olinmasa, huquqiy mazmun buzilishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Huquqiy terminlarning tarjimasida ko'p ma'nolilik

va kontekstga qaramlik muhim omil hisoblanadi. Bir termin turli huquqiy vaziyatlarda turlicha ma'no ifodalashi mumkin [7].

Uchinchi muammo — huquqiy tizimlar o'rtasidagi institutsional tafovutdir. Ingliz tilidagi huquqiy terminlar ko'pincha *common law* tizimiga tayanadi, o'zbek huquqiy terminologiyasi esa kontinental huquq an'anasiga yaqinroq. Shu sababli *equity, trust, injunction, consideration* kabi terminlarga to'g'ridan-to'g'ri, bir so'zli muqobil topish doim ham mumkin emas. Bunday holatda izohli tarjima yoki funksional muqobil qo'llash maqsadga muvofiq [8].

To'rtinchi muammo — terminologik birxillikning buzilishi. Bir hujjat yoki bir necha o'zaro bog'liq hujjatlarda bir terminning turlicha tarjima qilinishi huquqiy noaniqlik keltirib chiqaradi. Masalan, *reservation* termini xalqaro shartnomalar huquqida "ehtiyot sharti" yoki "bandga nisbatan istisno" ma'nolarida qo'llanadi. Uni bir joyda "rezervatsiya", boshqa joyda "cheklov", yana boshqa joyda "ehtiyot qaydi" deb tarjima qilish normativ izchillikni buzadi.

Muhokama

Xalqaro huquq terminlarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar yuzaki qaralganda faqat leksik muammo bo'lib ko'rinadi, biroq aslida ular chuqur huquqiy-semantik xarakterga ega. Har bir termin ortida ma'lum bir huquqiy institut, protsedura yoki majburiyat yotadi. Demak, tarjimon terminni nafaqat tarjima qiladi, balki uni yangi huquqiy-madaniy muhitga moslashtiradi.

Bu jarayonda eng muhim masala semantik moslik bilan huquqiy moslik o'rtasidagi muvozanatdir. Ba'zan so'zma-so'z tarjima ma'noni saqlagandek tuyuladi, ammo huquqiy nuqtai nazardan noto'g'ri bo'lishi mumkin. Masalan, *custody* so'zini har doim "qamoq" deb tarjima qilish xato bo'ladi, chunki u kontekstga qarab "vasiylik", "saqlash", "hibsda ushlab" yoki "e'tiborda saqlash" ma'nolarini bildirishi mumkin. Demak, huquqiy tarjimada kontekstual interpretatsiya majburiydir [9].

Tarjima amaliyotida quyidagi strategiyalar samarali sanaladi. Birinchisi, terminning o'zbek tilida mavjud bo'lgan bevosita muqobilidan foydalanish: *state* — davlat, *treaty* — shartnoma, *convention* — konvensiya. Ikkinchisi, izohli tarjima: *injunction* — sud tomonidan beriladigan taqiqlovchi qaror. Uchinchisi, kalkalash: *human rights* — inson huquqlari, *foreign affairs* — tashqi ishlar. To'rtinchisi, qabul qilingan shakldan foydalanish: *arbitration* — arbitraj, *protocol* — protokol. Biroq bu strategiyalarning har biri terminning mazmuni, matn turi va auditoriyasiga qarab tanlanishi kerak [10].

Xalqaro huquq terminlarini tarjima qilishda terminologik lug'atlar, rasmiy hujjatlar va mavjud standartlar bilan ishlash ham muhim. Chunki tarjimonning individual uslubi huquqiy matnda birxillikni buzmasligi lozim. Shu bois sohaviy tarjima bir necha bosqichdan iborat bo'ladi: terminni aniqlash, kontekstni tekshirish, huquqiy moslikni baholash, so'ng yakuniy variantni tanlash. Bu yondashuv o'zbek tilida normativ va ilmiy jihatdan ishonchli terminologik bazani shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xalqaro huquq terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish murakkab ilmiy-amaliy jarayon bo'lib, unda lingvistik, huquqiy va uslubiy omillar birgalikda hisobga olinishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asosiy muammolar terminning to'liq ekvivalentining yo'qligi, ko'p ma'nolilik, huquqiy tizimlar o'rtasidagi tafovut, terminologik birxillikning buzilishi va rasmiy uslub talablaridan kelib chiqadi.

Bu muammolarni kamaytirish uchun tarjimon semantik aniqlik, kontekstual tahlil, terminologik izchillik va huquqiy tafakkurga tayangan holda ish yuritishi kerak. Ayni paytda xalqaro huquq terminologiyasini o'zbek tilida yagona me'yor asosida shakllantirish, ilmiy va amaliy tarjima sifatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, huquqiy tarjima nafaqat tilshunoslik, balki milliy huquqiy madaniyatni boyituvchi muhim ilmiy soha sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Alcaraz, E., & Hughes, B. *Legal Translation Explained*. Manchester: St. Jerome Publishing, 2002.
2. Šarčević, S. *New Approach to Legal Translation*. The Hague: Kluwer Law International, 1997.
3. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall, 1988.
4. Komissarov, V. N. *Teoriya perevoda*. Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
5. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. *Stylistique comparée du français et de l'anglais*. Paris: Didier, 1958.
6. Xujaniyazova H.T. "Yuridik terminlarning kontekstual tarjimasi: o'zbek va ingliz tili asosida" // *Zamonaviy ta'limda ilm-fan va innovatsiya*. – 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.15471763.
7. Rahmatullayeva D. "Ingliz va o'zbek tillarida xalqaro huquq terminlarining tarjima xususiyatlari" // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2021.
10. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Университет, 2006.
11. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
12. Маҳмудов Н. "Тил ва нутқ: мулоқотнинг ижтимоий-маданий омиллари" (2012).
13. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
14. Ҳожиев А. Ўзбек тили терминологияси масалалари. Тошкент: 2012.
15. Isanova, Feruza (2023). O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3 (7). pp. 151-160. ISSN 2181-1342. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/519>
16. Isanova, Feruza (2021) FEATURES OF TRANSLATION IN AGRONOMIC TERMINOLOGY IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕК, 3 (16). pp. 248-252. ISSN УДК 37 <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2080>
17. Isanova, F. (2023). STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THE TERMS OF INTERNATIONAL LAW IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 1), 76–80. <https://lib.uniconflict.com/index.php/uilejsspc/article/view/8579>
18. Isanova, F. (2024). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI. Zamonaviy Dunyoda Ijtimoiy Fanlar: Nazariy Va Amaliy Izlanishlar, 3(4), 32–34. <https://lib.uniconflict.com/index.php/uilzdif/article/view/29994>.



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 5 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com